

I Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida

Konferensiya Toshkent shahridagi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti (keyingi o'rinlarda O'zDSMI) negizida o'tkaziladi.

Konferensiya ilmiy tadqiqot natijalari bilan almashish, hamkorlik va hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida o'qituvchilar, doktorantlar, kutubxonalarning xodimlari, yosh mutaxassislar, aspirantlar, magistrantlar, ish beruvchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillarining ishtirok etishiga qaratilgan.

Konferensiyaning ishchi tillari: rus, o'zbek, ingliz.

Hindistonlik mashhur sozanda Kunal Kale O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida mahorat darsi o'tdi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Hindistonning mamlakatimizdagi elchixonasi qoshidagi Lal Bahodir Shastri nomidagi madaniyat markazi bilan hamkorlikda mashhur hind sozandasi Kunal Kale tomonidan mahorat darsi tashkil etildi. Mehmonni kutib olgan institutimiz ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori Sobir Jumayev Kunal Kalega tashrifi uchun minnatdorchilik bildirib, oliygohimizning maxsus esdalik sovg'asini taqdim etdi.

Mahorat darsi institutning cholg'u ijrochiligi kafedrasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tkazildi. Mahorat darsi davomida talabalarimiz hind madaniyati va san'atiga oid musiqiy kuylar va musiqa asboblari haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Mahorat darsi oxirida talabalarimiz sozanda Kunal Kale bilan birgalikda kuylarni ijro etishdi. Shuningdek, Kunal Kalega cholg'u ijrochiligi kafedrasi mudiri Sobir Turatov tomonidan kafedra faoliyati ham batafsil tanishtirib o'tildi.





**0'zbekistondagi Haydar Aliyev
nomidagi Ozarbayjon madaniyat
markazida tashkilotning yil**

yakunlariga bag'ishlangan tadbiri bo'lib o'tdi

O'zbekistonda Ozarbayjonga doir e'lon qilingan musobaqaning taqdirlash marosimi tashkil qilindi.

O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi tomonidan 2023-yil bo'yicha o'lka matbuoti, jamiyati o'rtasida Ozarbayjon, shuningdek ikki o'lka orasida tarixiy do'stlik va hamkorlikka oid e'lon qilingan musobaqaning taqdirlash marosimi tashkil qilindi.

Eslatib o'tamiz, 2013-yilda buyuk yo'lboshchi Haydar Aliyevning 90 yillik yubileyi munosabati bilan o'tkazila boshlangan bu musobaqa har yil an'anaviy tarzda o'tkaziladi va musobaqada e'lon qilingan mavzular bo'yicha maqolalar, televideniya ko'rsatuvlari, hujjatli filmlar, tarjima asarlar, shuningdek, «Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlikka oid eng ko'p materiallar chop etgan matbuotlar», davlat va jamoatchilik vakillari, madaniyat xodimlari, Ozarbayjon Madaniyat Markazining faxriy diplomi va pul mukofotiga sazovor bo'ladilar.

Ozarbayjon Madaniyat Markazida tashkillashtirilgan bu yilgi tantanali marosim yuksak darajada o'tkazilgani bilan farq qiladi. Qolaversa, ushbu tadbir Haydar Aliyev yiliga bag'ishlab tashkil etildi.

Tadbirni kirish so'zi bilan ochib bergan Markaz direktori Samir Abbosov o'tgan yilning yakunlari, Ozarbayjon-O'zbekiston o'rtasida do'stlik va hamkorlikning inkishofi, madaniy aloqalarda turli tadbirlar va loyihalarning amalga oshirilgani haqida so'z yuritdi.

Direktor O'zbekistonning Toshkent shahri va Xorazm viloyatida Ozarbayjon madaniyati haftaligi, Shusha kunlari, Ozarbayjon kinosi kunlari va Bokuda esa O'zbekiston madaniyati kunlari

o'tkazilganini aytib o'tdi.

Samir Abbosov davlat rahbarlarimizning o'zaro uchrashuvlari, safarlari Ozarbayjonning ishg'oldan ozod etilgan Fuzuliy tumanida O'zbekiston davlatining loyihasi asosida maktab barpo etilgani va uning ochilish marosimini, Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetida «Ozarbayjonshunoslik» Markazining ochilishi, Qo'qon shahridagi Xalqaro Hunarmandchilik muzeyida Ozarbayjon burchagining yaratilishi bu yil uchun esda qolarli hodisa sifatida yuksak baholadi.

Samir Abbosov an'anaviy mavzular bilan birga bu yil musobaqaga «Haydar Aliyev – turkiy dunyo – O'zbekiston», «Shusha – turk dunyosining madaniyat poytaxti» nominatsiyalari ham e'lon qilinganini aytib o'tdi.

Chiqish qilgan tadbirning keyingi ishtirokchisi O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi rahbari o'rinbosari Akbarxon Magdiyev o'lkalarimiz orasida madaniyat va matbuot sohasidagi aloqalarning to'xtab qolmasdan yuksalishda davom etayotgani, musobaqada 2023-yilning Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili» deya e'lon qilingani inobatga olinib, maxsus nominatsiyasi belgilangani to'g'risida ta'kidladi. U Ozarbayjon Madaniyat Markazi O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygani va buning natijasida o'tgan yillarga nisbatan taqqoslaganda har yil O'zbekiston matbuotlarida Ozarbayjon mamlakati haqida 500 dan ortiq maqola chop etilgani va ko'rsatuvlarning efirga uzatilganini alohida ta'kidlab o'tdi.

Undan keyin taqdirlash marosimi tashkil qilindi.

2023-yilda «Ozarbayjon-O'zbekiston do'stligi, hamkorligiga doir yilning eng yaxshi televideniya ko'rsatuvi» nominatsiyasi bo'yicha mukofotga «Sevimli TV» telekanali boshlovchisi va muxbiri Nigora Elmurodova, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining «O'zbekiston – umumiy uyimiz» ko'rsatuvi rejissyori va boshlovchisi Mirzaahmad Avazov va Bektosh Azimov, O'zbekistonning «Sevimli TV» telekanali «Zamon» informatsion dasturi boshlovchisi Nazira Ubaydullayeva

munosib deb topildi.

O'zbekistonda Ozarbayjonga oid yilning eng yaxshi loyihasi bo'yicha mukofotlar Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti rektori, professor Gulchehra Rixsiyeva Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetida Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjonshunoslik Markazining yaratilishi loyihasi uchun, O'zbekiston yoshlar ishlari agentligining «Ibrat farzandlari» loyihasi rahbari Rustam Qoriyevga Youtube onlayn platformasida Ozarbayjon tilining onlayn shaklda o'rgatilishi loyihasi uchun taqdim etildi.

«Ozarbayjon-O'zbekiston do'stlik aloqalarini targ'ib qilgan O'zbekistonning madaniyat va ilm xodimi» nominatsiyasi bo'yicha mukofotga O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, dotsent Eldor Shermonov va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti prorektori, professor Feruza Ikramxonova loyiq deb topildi.

2023-yilda O'zbekistonda «Yilning eng yaxshi madaniyat loyihasi» nominatsiyasi bo'yicha esa O'zbekistonning Muqimiy nomidagi davlat musiqali teatri tomonidan sahnalashtirilgan «Qaynona» musiqali komediya tomoshasi va O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti musiqa-teatr truppasi tomonidan sahnalashtirilgan «Arshin mol olan» musiqali komediya tomoshasi, shuningdek Ozarbayjon-O'zbekiston do'stligiga bag'ishlangan «Meni sevib qolsayding» klipi uchun «ARB Günəş» televideniya rahbari Mahsim Mahsimov mukofot bilan taqdirlandilar.

2023-yilda O'zbekiston matbuotida «Haydar Aliyev – turkiy dunyo – O'zbekiston» mavzusida yilning maqolalari nominatsiyasi bo'yicha mukofotlar O'zbekistonning «aniq.uz» sayti jurnalisti Nizomjon Isoqovga va O'zbekistonning «darakchi.uz» sayti jurnalisti Karim Zaripovga taqdim etildi.

«Ozarbayjon-O'zbekiston do'stligi, hamkorligini keng targ'ib qilgan ozarbayjonlik ziyoli» nominatsiyasi bo'yicha O'zbek va Qoraqalpoq adabiyotiga doir ko'plab tadqiqot ishlarini qilgan

Boku Slavyan universiteti Ozarbayjon adabiyoti kafedrası professori, filologiya fanlari doktori, turkolog, adabiyotshunos, tanqidchi Ozarbayjonning aziz muallimi Nizomiy Tag'isoy mukofotga munosib deb ko'rildi.

O'zbekistonda Ozarbayjon adabiyotiga doir ilmiy-tadqiqot loyihasi nominatsiyasi bo'yicha Maqsud Shayxzoda merosining o'rganilishi, tadqiqi va targ'ibotiga oid ilmiy-tadqiqot asari uchun Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti Oybibi Iskandarova, «Yilning eng yaxshi tarjima nashri loyihasi» nominatsiyasi bo'yicha esa tarjimon, shoir Rahmatjon Bobonojonov mukofot bilan taqdirlandilar.

2023-yilda «Ozarbayjon-O'zbekiston do'stligini, hamkorligini targ'ib qilgan ozarbayjonlik jurnalistlar» nominatsiyasi bo'yicha Ozarbayjonning «Trend.az» va «Newscenter.az» saytlarining jurnalistlari Vugar Imonov va Sulaymon Ismoyilbeyli munosib deb topildi.

«Ozarbayjon milliy musiqasining O'zbekistonda keng targ'iboti» nominatsiyasi bo'yicha yil mukofoti O'zbekistonda tanilgan ozarbayjonlik soz ustasi Ilhom Abdullayev va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti Davron Qodirovga taqdim etildi.

Taqdirlash marosimining so'nggida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, dotsent Eldor Shermonov va Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti rektori, professor Gulchehra Rixsiyeva, O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi «Ibrat farzandlari» loyihasi rahbari Rustam Qoriyev so'zga chiqib, mukofot uchun o'z minnatdorchiligini bildirdilar va bu mukofot ularning faoliyatlariga berilgan baho, e'tibor kabi qarshilaganini, bundan keyin ham Ozarbayjon bilan do'stlik aloqalariga katta ahamiyat berishlarini ta'kidlab, Ozarbayjon davlatiga o'z samimiy tashakkurlarini bildirdilar.

Tadbir oxirida ishtirokchilarga Ozarbayjon milliy kuy-qo'shiqlaridan iborat musiqiy guldasta taqdim etildi.





O'zDSMI ilmiy kengashining yillik hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy kengashining 5-sonli yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Dastlab institut rektori v.b. Eldor Shermanov barchani yaqinlashib kelayotgan yangi yil bayrami bilan tabrikladi va minnatdorchilik bildirdi.

«Yil davomida erishilgan natijalarda barchaning katta hissasi bor, buning uchun o'z minnatdorchiligimni bildiraman. Bundan keyin ham bir tan-u bir jon bo'lsak, 2024-yilda yuqori marralarga erishamiz», – dedi Eldor Shermanov.

- **Yig'ilishda quyidagi masalalar bo'yicha hisobotlar tinglandi:**
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Farmoyishlari va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va bayoni, Vazirliklarning buyruqlari va topshiriqlarining bajarilishi;
 - institutda iqtidorli talabalar bilan ishlash holati va

uni yanada takomillashtirish bo'yicha 2023/2024-o'quv yilida amalga oshiriladigan ishlar;

- tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul natijalari;
- doktorantlarning yillik hisoboti, monitoring natijalari, kursdan kursga o'tkazish masalalari;
- institutda sport klubi raisi va o'rinbosarini tasdiqlash va boshqalar.

Yig'ilish davomida madaniyat va san'at menejmenti kafedrası o'qituvchisi Oybek Do'stmuhammedov, sahna nutqi kafedrası o'qituvchisi Bahodir Mag'diyev hamda sahna haraklati va jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi Saida Zakirova dotsent ilmiy unvonini bilan taqdirlandi.







Angdong milliy universiteti bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati Janubiy Koreyaning Angdong milliy universiteti vakillari bilan hamkorlik masalalari bo'yicha uchrashdi.


Muzokara davomida ikki oliygoh o'rtasida hamkorlik bo'yicha fikr almashildi. Jumladan, kelgusida ta'lim muassasalari o'rtasida qo'shma yo'nalish ochish hamda talabalarning O'zbekiston va Janubiy Koreyada tahsil olishini ta'minlash masalalari muhokama qilindi. Shu jumladan, o'zbekistonlik talabalar uchun qo'shimcha ravishda koreys tili markazi ochilib, koreyalik mutaxassislar tomonidan bepul darslar o'tkazishili rejalashtirildi.


Tashrif davomida mehmonlar dars jarayonlari va o'quv teatri faoliyati bilan tanishdi.

Ma'lumot uchun, Andong milliy universiteti Janubiy Koreyaning Shimoliy Geongsang provinsiyasi, Andong shahrida joylashgan davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanib, mamlakatning eng yaxshi yuzta oliygohidan biri hisoblanadi.

Andong universitetida 6 ta kollej, 47 ta bo'lim va 4 ta

mutaxassislik, jumladan, gumanitar fanlar va san'at, ijtimoiy fanlar, fan va texnologiya va sog'liqni saqlash kollejlari mavjud.





Prezidentimiz islohotlariga kamarbasta bo‘lamiz

Xabaringiz bor, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda ma'naviyat va madaniyat faollari, adabiyot va san'at namoyandalari bilan bir qatorda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati va professor-o'qituvchilari ham ishtirok etdi.

Bugun oliygohda Prezident tashabbuslari ijrosini ta'minlash hamda islohotlar bilan yoshlarni tanishtirish maqsadida yig'ilish tashkil etildi. Unda sohalar oldidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Institut rahbariyati tomonidan kelgusi yilda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

«Kuni kecha Prezidentimiz tomonidan juda katta tashabbuslar ilgari surildi. Albatta, davlatimiz rahbarining madaniyat va san'at sohasiga bu qadar jon kuydirayotgani barchamizda faxr tuyg'usini uyg'otishi lozim. Bu ham bizga mas'uliyat bilan rivojlanish olg'a qadam tashlashimizga turtki beradi. Barchamiz Yurtboshimiz islohotlariga kamarbasta bo'lishimiz va ishonchni oqlashimiz lozim», – dedi institut rektori v.b. Eldor Shermanov.

Yig'ilish davomida Prezident ilgari surgan tashabbuslar uchun institut professor-o'qituvchilari tomonidan ham minnatdorchilik bildirildi. Shu bilan birga, soha rivojiga oid vaziflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yuzasidan mas'ul shaxslarga tegishli topshiriqlar berildi.






0‘zDSMIga ozarbayjonlik taniqli shoir Xayol Rizo tashrif buyurdi

Bugun 0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutiga Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi boshqaruv kengashi a‘zosi, uyushma matbuot xizmati rahbari Xayol Rizo tashrif buyurdi.

Tashrif davomida Xayol Rizo institut rahbariyati bilan ikki mamlakatning madaniyat va san'at sohasida amalga oshirayotgan hamkorliklari, adabiyot va kitobxonlik borasida qarashlari to'g'risida fikr almasildi.

Shuningdek, ozarbayjonlik mehmon oliygohning axborot-resurs markazi faoliyati bilan tanishdi hamda o'quv teatrida tashkil etilgan konsert dasturini tomosha qildi.





O'zDSMIda folklor, til va madaniyat masalalari bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazildi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamkorligida joriy yilning 19-dekabr kuni folklor va etnografiya kafedrası tashabbusi bilan «Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Unda soha vakillari, taniqli professor-o'qituvchilar va olimlar, kafedra o'qituvchilari, tayanch doktorant va boshqalar o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Konferensiya zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zbek folklori, tili va madaniyatiga tatbiq etish orqali sohani yanada rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilgan.

Shuningdek, sho'balar tashkil etilib, «Mustaqillik davri folklor san'atining o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek folklorshunosligida olib borilayotgan izlanishlar», «Xalq dostonlarining milliy madaniyatimizda tutgan o'rni», «Lingvofolkloristika, til, adabiyot va folklor masalalari» kabi mavzular muhokama qilindi.

Konferensiya yakunida ishtirokchilar sertifikat bilan taqdirlandi.







